Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach.....	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar.....	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlari.....	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari.....	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	



SANOAT INFRATUZILMASINING TARKIBIY TUZILISHI VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Rasulov Jamshid Karimovich

Yoshlar ishlari agentligi moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i,

e-mail: jamshid.r@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada 2001–2024-yillar davomida Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasining tarkibiy o'zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sanoat mahsuloti hajmi 70,0 mlrd so'mdan 28 438,8 mlrd so'mgacha oshib, umumiy hajm qariyb 400 martaga ko'paygan. Oziq-ovqat, ichimliklar va avtotransport ishlab chiqarish "drayver" tarmoqlar sifatida ajralib chiqqan, to'qimachilik, kiyim-kechak, qurilish materiallari va mashinasozlik o'rta darajadagi barqaror yo'nalishlarni tashkil etgan. Kichik ulushli sohalar esa sanoatning diversifikatsiyasi va innovatsion salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynagan. Sanoat infratuzilmasini tartibga solishda institutsional, iqtisodiy, innovatsion va tashkiliy mexanizmlarning o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari hududiy sanoatning barqaror rivojlanishi sifat omillarini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sanoat infratuzilmasi, tarkibiy o'zgarishlar, drayver tarmoqlar, diversifikatsiya, iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the structural transformations and development dynamics of the industrial infrastructure of Khorezm region during 2001–2024. Statistical data show that the volume of industrial production increased from 70.0 billion UZS to 28,438.8 billion UZS, which means nearly a 400-fold growth. Food production, beverages, and the automotive industry have emerged as "driver" sectors, while textiles, clothing, construction materials, and mechanical engineering represent medium-level stable branches. Small-scale sectors, despite their limited share, have played an important role in strengthening diversification and innovative potential. The research highlights the significance of institutional, economic, innovative, and organizational mechanisms in regulating industrial infrastructure. The findings indicate that the sustainable development of regional industry is directly related to improving qualitative factors, expanding export opportunities, and introducing modern technologies.

Key words: industrial infrastructure, structural transformation, driver sectors, diversification, economic mechanisms, innovative development.

Аннотация: В статье проведён анализ структурных преобразований и динамики развития промышленной инфраструктуры Хорезмской области в 2001–2024 гг. По статистическим данным, объём промышленного производства вырос с 70,0 млрд сумов до 28 438,8 млрд сумов, что свидетельствует о почти 400-кратном росте. Производство пищевых продуктов, напитков и автомобилестроение сформировались как «драйверные» отрасли, тогда как текстильная промышленность, производство одежды, строительных материалов и машиностроение занимают позиции среднеразвитых направлений. Небольшие по доле отрасли, несмотря на ограниченный масштаб, сыграли важную роль в укреплении диверсификации и инновационного потенциала. В статье раскрывается значение институциональных, экономических, инновационных и организационных механизмов в регулировании промышленной инфраструктуры. Результаты исследования показывают, что устойчивое развитие региональной промышленности напрямую связано с повышением качественных факторов, расширением экспортных возможностей и внедрением современных технологий.

Ключевые слова: промышленная инфраструктура, структурные изменения, драйверные отрасли, диверсификация, экономические механизмы, инновационное развитие.



KIRISH

Hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi, samaradorligi va transformatsiya jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, Xorazm viloyati misolida ko'rinadiki, yirik tarmoqlar (avtotransport vositalari ishlab chiqarish, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari sanoati) iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, kichik ulushga ega tarmoqlar ham iqtisodiy muvozanat, diversifikatsiya va innovatsion imkoniyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Mazkur jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida belgilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi maqsadlari bilan hamohangdir [1]. Xususan, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalar asosida sanoatni rivojlantirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish hamda qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini ikki barobar oshirish strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Shu nuqtai nazardan, sanoat infratuzilmasini chuqur tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va optimal tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Optimal mexanizmlar orqali yirik tarmoqlarda ishlab chiqarish barqarorligini mustahkamlash, kichik sohalarda investitsion rag'batlarni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish imkoniyatlari yaratiladi [2, 3]. Natijada hududiy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, P. Zhang [4] sanoat infratuzilmasi rivojlanishini zamonaviy axborot infratuzilmasi bilan uzviy bog'lab, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va innovatsion faoliyatni kengaytirishda uning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoatning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishida muhim omil sifatida ko'riladi. W. Wu [5] esa yangi infratuzilma qurilishi asosida transformatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini kuchaytirishni asoslab, hududlarda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi, yangi tarmoqlar shakllanishi va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, A. A. Urasova [6] texnologik evolyutsiya jarayonida hududiy tuzilmaning moslashuvchanligini iqtisodiy tizim barqarorligi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik omil sifatida e'tirof etadi. Mazkur yondashuvlar, shuningdek boshqa ilmiy ishlarda keltirilgan yondashuvlar [7–9], umumiy holda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion muhitni rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim va zaruriy sharti sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasida asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi va dinamikasi taqqosiy tahlil qilindi. Viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tendensiyalar o'rganilib, o'sish sur'atlari va tarkibiy o'zgarishlar aniqlab berildi. Shuningdek, sanoat infratuzilmasini tartibga solish mexanizmlarining turli shakllari tahlil qilinib, ularning farqlari va ustunliklari ilmiy asosda ko'rsatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2010–2024-yillar oralig'ida Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasining tarkibiy o'zgarishlari chuqur iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, xorijiy va mahalliy investitsiya oqimlarini jalb etish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu davrda amalga oshirilgan davlat dasturlari, xususan, sanoatning modernizatsiya va texnik qayta jihozlanishiga oid strategik qarorlar natijasida hududda ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti sezilarli darajada o'zgarib borgan.

Statistik ko'rsatkichlarning chuqur tahlili Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasida ayrim tarmoqlarning tez sur'atlarda rivojlanishini, ayrim sohalarning esa o'z ulushini yo'qotayotganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, hudud iqtisodiyotining tarkibiy yangilanishi, ichki bozor talabining o'zgarishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan izohlanadi.

Mazkur davr mobaynida sanoat tarmoqlarining o'zaro ulushi va ularning iqtisodiyotdagi nisbiy ahamiyati aniqlanib, ularning rivojlanish sur'atlari hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, avtomobilsozlik va boshqa kichik ulushli tarmoqlar bo'yicha kuzatilgan dinamikalar sanoatning diversifikatsiya qilingan modelini shakllantirayotganini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, quyida keltirilgan jadval Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasida asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi va dinamikasini aks ettiradi.



1-jadval. Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasida asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi va dinamikasi

	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqaradigan sanoat	91,7	91,7	95,5	96,5	96,0	96,5	96,3
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	50,9	25,4	15,7	23,4	20,9	19,1	18,3
Ichimliklar ishlab chiqarish	3,6	3,6	3,3	2,2	6,0	8,0	7,2
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	24,5	24,5	21,4	22,5	20,6	19,0	19,1
Kiyim ishlab chiqarish	0,5	0,5	0,7	0,7	0,6	0,7	1,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,3	0,3	0,2	0,3	0,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	0,4	0,4	0,7	1,1	1,0	1,0	1,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	0,1	0,01	0,01	0,03	0,03	0,04
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,2	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	0,3	0,3	0,5	0,3	0,2	0,2	0,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1	0,1	0,04
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	0,5	0,5	0,9	0,9	0,6	0,5	0,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	3,6	3,6	2,8	3,0	2,1	2,6	3,2
Metallurgiya sanoati	0,1	0,1	0,7	0,3	0,3	0,3	0,2
Mashina va uskunalar dno tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	1,3	1,3	2,1	1,4	1,1	1,3	2,0
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	0,6	0,6	0,3	0,2	0,3	0,4	0,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	2,7	2,7	1,4	2,0	2,3	0,7	1,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	0,0	25,5	42,7	36,9	38,4	40,9	39,2
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
Mebel ishlab chiqarish	0,6	0,6	0,4	0,4	0,3	0,4	1,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,0	1,4	0,7	0,5	0,5	0,3
Mashina va uskunalar dno ta'mirlash va o'rnatish	0,0	0,0	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1

Asosiy drayver tarmoqlar. Birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatning uzoq yillar davomida yetakchi tarmog'i bo'lib kelgan. 2010-yilda uning ulushi umumiy ishlab chiqarish hajmining 50,9 foizini tashkil etib, sanoatning yarmidan ko'prog'ini qamrab olgan. Keyingi davrlarda esa bu ulush pasayib, 2020-yilda 15,7 foizgacha tushib ketdi. Biroq 2021-yilda qisman tiklanib, 23,4 foizni tashkil etdi. So'nggi yillarda esa barqaror pasayish kuzatilib, 2024-yilda 18,3 foizni tashkil etdi. Bu jarayon boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlarning tez sur'atlarda rivojlanishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, oziq-ovqat sanoati o'zining ijtimoiy ahamiyati, aholining kundalik ehtiyojlarini ta'minlashdagi roli hamda eksport imkoniyatlari bilan mintaqa sanoat infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, ichimliklar ishlab chiqarish nisbatan kichik ulushga ega bo'lsa-da, so'nggi yillarda sezilarli sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2010–2015-yillarda bu tarmoq 3,6 foiz atrofida bo'lgan. 2020-yilda qisqa muddatli pasayish kuzatilib (2,2 %), ammo keyingi yillarda o'sish jarayoni kuchaydi. 2023-yilda ichimliklar ishlab chiqarish ulushi 8 foizgacha oshdi, 2024-yilda esa biroz pasayib 7,2 foizni tashkil etdi. Bu jarayon ichki bozor talabining ortishi, kichik biznes subyektlarining faoliyati va diversifikatsiyalashgan mahsulot turlarining ko'payishi bilan bog'liqdir.



Uchinchi eng muhim yo'nalish — avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish sanoatining “drayver” sohasi sifatida shakllandi. 2010p-yilda bu yo'nalish umuman mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2015-yilda birdan 25,5 foiz ulush bilan sanoatning yirik tarkibiy qismiga aylandi. 2020-yilda ulush 42,7 foizgacha oshdi va mintaqa sanoatining eng yetakchi sohasi darajasiga ko'tarildi. Keyingi yillarda ko'rsatkich nisbatan barqarorlashib, 2024-yilda 39,2 foizni tashkil etdi. Avtomobilsozlik sanoatining qisqa muddat ichida bunday ulushga erishishi mintaqada yuqori texnologik ishlab chiqarishning shakllanganidan, investitsiyalarning samarali o'zlashtirilganidan hamda ichki va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilayotganidan dalolat beradi.

O'rta darajadagi tarmoqlar. To'qimachilik sanoati mintaqaning an'anaviy tarmog'i sifatida barqaror o'rin tutadi. 2010-yilda uning ulushi 24,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 19,1 foizni tashkil etdi. To'qimachilik sanoatidagi qisqarish avtotransport va boshqa yuqori texnologiyali sohalarning o'sishi fonida ro'y berdi, ammo u eksport salohiyatining asosiy manbalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Kiyim ishlab chiqarish 0,5–1,4 foiz oralig'ida o'zgarib, kichik ulushga ega bo'lsa-da, qo'shimcha qiymat yaratishda va bandlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (sement, qurilish materiallari va boshqalar) ham mintaqa sanoatida muhim rol o'ynaydi. 2010-yilda 3,6 foiz bo'lgan ulush 2024-yilda 3,2 foizni tashkil etib, nisbatan barqaror darajada saqlanmoqda. Bu tarmoq asosan qurilish sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, infratuzilma loyihalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mashina va uskunalar ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash va o'rnatish tarmoqlari ham oxirgi yillarda asta-sekin rivojlanib bormoqda. Ularning umumiy ulushi past bo'lsa-da, sanoatning texnologik bazasini shakllantirishda muhim yordamchi sohalar sifatida qaratiladi.

Kichik ulushga ega yordamchi tarmoqlar. Kimyo sanoati, rezina va plastmassa buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, farmatsevtika, elektr uskunalari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlar umumiy sanoat hajmida kichik ulushga ega (0,1–1,0 % atrofida), ammo ularning mavjudligi sanoatning diversifikatsiya jarayonlarini kuchaytiradi. Ushbu tarmoqlar eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahsulotlar bilan ta'minlash hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda muhim o'rin tutadi.

Yog'och buyumlar, mebel, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari ham nisbatan kichik ulushga ega bo'lib, asosan ichki bozor talabini qondirishga qaratilgan.

Umuman olganda, Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasining 2010–2024-yillardagi rivojlanishi uch bosqichli tarkibiy modelni shakllantirdi:

Asosiy drayver tarmoqlar (ozuq-ovqat, ichimliklar va avtotransport ishlab chiqarish) sanoatning katta qismini egallab, mintaqaviy iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'rta darajadagi tarmoqlar (to'qimachilik, kiyim-kechak, mineral mahsulotlar, mashina va uskunalar) sanoatning muvozanatli rivojlanishini ta'minlamoqda.

Kichik ulushli yordamchi tarmoqlar esa diversifikatsiya, innovatsion imkoniyatlar va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2-jadval. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Yillar	Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	Yillar	Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda
2001	70,0	100,2	2013	1297,2	111,5
2002	99,9	100,3	2014	1920,8	121,5
2003	127,1	96,1	2015	2616,0	126,2
2004	151,4	102,5	2016	2802,7	93,1
2005	214,8	120,9	2017	4070,4	118,3
2006	257,6	106,0	2018	6457,2	107,9
2007	301,9	108,2	2019	8538,6	107,5
2008	368,9	100,0	2020	9615,9	106,1
2009	422,0	109,0	2021	13658,1	117,2
2010	628,6	106,5	2022	18323,3	115,0
2011	852,4	113,9	2023	21589,1	106,4
2012	1014,2	106,4	2024	28438,8	107,0



2001–2024-yillar oralig'ida Xorazm viloyati sanoat mahsuloti hajmi va o'sish sur'atlarida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dastlabki davrlarda (2001–2005 yillar) sanoat ishlab chiqarish hajmi nisbatan kichik bo'lib, 70,0 mlrd so'mdan 214,8 mlrd so'mgacha o'sdi. Bu davrda o'sish sur'atlari barqaror bo'lib, ba'zi yillarda (2005 yilda 120,9 %) yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan. Bu jarayon hududda sanoatning dastlabki modernizatsiya bosqichlari, ishlab chiqarish quvvatlarini qayta tiklash hamda yangi texnologiyalarni joriy etish bilan izohlanadi[10-11].

2006–2010-yillarda ishlab chiqarish hajmining o'sishi tezlashib, hajm 628,6 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, ayrim yillarda o'sish sur'atlarining pasayishi ham kuzatilgan (2003-yilda 96,1 %). Bunday o'zgarishlar ichki bozor talabi, resurs narxlar va ishlab chiqarish samaradorligidagi vaqtinchalik cheklovlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2011–2015-yillar oralig'ida sanoat rivojlanishi keskin faollashgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 852,4 mlrd so'mdan 2616,0 mlrd so'mgacha ko'tarilgan. Ayniqsa, 2015-yilda o'sish sur'ati 126,2 %ni tashkil qilgan. Bu davr viloyat sanoatida yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilgani, qayta ishlash sanoati ulushining ortgani hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishning kengayishi bilan izohlanadi.

2016–2020-yillarda ishlab chiqarish hajmi keskin oshib, 2802,7 mlrd so'mdan 9615,9 mlrd so'mga yetdi. Shu davrda ayrim yillarda o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilgan (2016-yilda 93,1 %), biroq umumiy tendensiya barqaror o'sishdan dalolat beradi. Bu jarayon Xorazm viloyatida sanoat klasterlari va kichik sanoat zonalarining shakllantirilishi bilan chambarchas bog'liq.

2021–2024-yillar eng intensiv rivojlanish davri bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 13658,1 mlrd so'mdan 28438,8 mlrd so'mgacha ko'tarilgan. Bu esa atigi uch yil ichida hajmning ikki baravar oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlari yilma-yil turlicha bo'lgan: 2021-yilda 117,2 %, 2022-yilda 115,0 %, biroq 2023-yilda nisbatan pasayib 106,4 %ni tashkil etgan, 2024-yilda esa yana 107,0 % ga tiklangan. Bu holat hudud sanoatida jadal rivojlanish bosqichidan barqaror o'sish bosqichiga o'tilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2001–2024-yillarda Xorazm viloyati sanoati hajm jihatidan qariyb 400 martaga o'sdi. Bu jarayon viloyat sanoat infratuzilmasining tubdan yangilanganini, yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilganini va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, sanoatning keyingi bosqichdagi rivojlanishi sifat omillarini oshirish, mahsulot eksportini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni kengroq tatbiq etish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Sanoat infratuzilmasini tartibga solish mexanizmlari hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion choralarni o'z ichiga oladi.

3-jadval. Sanoat infratuzilmasini tartibga solish mexanizmlari

1	Institutsional mexanizmlar	sanoat siyosatini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.
2	Iqtisodiy mexanizmlar	soliq imtiyozlari, subsidiyalar va investitsion rag'batlar orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etish.
3	Innovatsion mexanizmlar	raqamli transformatsiya, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va intellektual monitoringni joriy etish.
4	Tashkiliy mexanizmlar	sanoat klasterlari va tarmoq integratsiyasini rivojlantirish orqali resurslardan samarali foydalanish.

Institutsional mexanizmlari. Hududiy sanoatni rivojlantirishda institutsional mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, avvalo, sanoat siyosatini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish, davlat boshqaruvi va xususiy sektor manfaatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan. Bunda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari markaziy o'rin tutib, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, yangi texnologiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali hududda sanoat siyosati nafaqat davlat tashabbuslari, balki xususiy sektor manfaatlarini ham o'zida mujassam etgan tizimga aylanadi.

Iqtisodiy mexanizmlar. Sanoat infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining ahamiyati yuqori. Jumladan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va investitsion preferensiyalar orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Bu mexanizmlar bir tomondan investitsion jozibadorlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga zamin yaratadi. Ayniqsa, tashqi investorlar uchun qulay muhit shakllantirilishi hududiy sanoat salohiyatining tezroq o'sishiga olib keladi.

Innovatsion mexanizmlar. Zamonaviy sanoat infratuzilmasining samaradorligi innovatsion yondashuvlar bilan bevosita bog'liq. Raqamli transformatsiya jarayonlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy



intellekt va intellektual monitoring texnologiyalarining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda sifat ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion mexanizmlar global bozor talablariga moslashish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy mexanizmlar. Hududiy sanoat rivojlanishida tashkiliy mexanizmlar – sanoat klasterlarini shakllantirish, tarmoq integratsiyasini kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Klaster tizimi ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarini – xomashyo bazasi, qayta ishlash, logistika va tayyor mahsulot eksportigacha bo'lgan zanjirni birlashtirib, qo'shilgan qiymatni oshirish imkonini beradi. Shu orqali hududiy sanoatning ichki bog'liqligi mustahkamlanadi va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyati sanoat infratuzilmasining rivojlanishi yirik ishlab chiqarish tarmoqlari – avtotransport vositalari, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari ulushi hisobiga shakllanganini, shu bilan birga kichik ulushga ega sohalarning ham iqtisodiy diversifikatsiya va muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. 2001–2024-yillar davomida sanoat mahsuloti hajmining ortib borishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda yangi texnologiyalarning joriy etilishi mintaqada barqaror o'sish jarayonlarini ta'minlagan.

Shu nuqtai nazardan, mintaqa sanoat infratuzilmasini rivojlantirishda yirik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, kichik sohalarda investitsion rag'batlarni kuchaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish zaruriy shart hisoblanadi. Bu jarayonda institutsional, iqtisodiy, innovatsion va tashkiliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish orqali sanoat infratuzilmasini yanada samarali tartibga solish imkoniyati mavjud.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda esa mintaqada sanoat infratuzilmasini optimal tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish masalasi chuqurroq o'rganilishi dolzarb hisoblanadi. Bunda klaster yondashuvi, iqtisodiy-matematik modellashirish va innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni, 11-sentabr 2023.
2. Rakhimov, A.N., & Jo'rayev, F.D. (2022). A systematic approach to the methodology of agricultural development and the strategy of econometric modeling. *Res Militaris*, 12(4), 2164-2174.
3. Жураев, Ф. (2021). Перспективные проблемы развития производства сельскохозяйственной продукции и их эконометрическое моделирование. *Экономика И Образование*, (4), 377-385.
4. W. Wu, Z. Ji, and H. Liang, "The impact of new infrastructure construction on optimization and upgrading of industrial structure," *Buildings*, vol. 13, no. 10, p. 2580, 2023, doi: 10.3390/buildings13102580.
5. P. Zhang, J. Wang, M. Li, and F. Xiao, "Research on the mechanism of information infrastructure affecting industrial structure upgrading," *Scientific Reports*, vol. 12, no. 1, p. 19962, Nov. 2022, doi: 10.1038/s41598-022-24507-9
6. A. A. Urasova, "Transformation of regional industrial structure during technological evolution," *Russian Journal of Industrial Economics*, vol. 6, 2022
7. L. You, T. Ji, B. Shao, X. Wu, and L. Shi, "Design-driven regional industry transformation and upgrading under the perspective of sustainable development," *Scientific Reports*, vol. 13, article 17071, Oct. 2023. <https://doi.org/10.1038/s41598-023-44190-8>
8. Chen, X.; Wang, E.; Miao, C.; Ji, L.; Pan, S. Industrial Clusters as Drivers of Sustainable Regional Economic Development? An Analysis of an Automotive Cluster from the Perspective of Firms' Role. *Sustainability* 2020, 12, 2848. <https://doi.org/10.3390/su12072848>
9. Corinne C Delechat, Giovanni Melina, Monique Newiak, Chris Papageorgiou, and Nikola Spatafora. "Economic Diversification in Developing Countries: Lessons from Country Experiences with Broad-Based and Industrial Policies", *Departmental Papers* 2024, 006 (2024), accessed September 20, 2025, <https://doi.org/10.5089/9798400240201.087>
10. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
11. <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>